

DUNYONING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARI G'OVAVIY TARG'IBOT MENEJMENTINING KOMPARATIV TAHLILI

Kamalov Azamat Jamalovich

(PhD) Nizomiy Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrasи dotsent v.b

Annotatsiya.. Maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlari g'oyaviy targ'ibot menejmentining komparativ tahlili haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijning rivojlangan davlatlarining tajribasidan foydalilanigan.

Kalit so'zlar; menejment, oila, mahalla, milliy istiqlol g'oyasi, axloqiy me'yorlar, xorij tajribasi

COMPARATIVE ANALYSIS OF IDEA PROMOTION MANAGEMENT OF DEVELOPED COUNTRIES OF THE WORLD

Kamalov Azamat Jamalovich

(PhD) Associate Professor, Department of Educational Management, Tashkent State Pedagogical University

Abstract. The article talks about the comparative analysis of ideological propaganda management of the developed countries of the world. In order to reveal the content of the article, the experience of developed foreign countries was used.

Keywords; management, family, neighborhood, idea of national independence, moral standards, foreign experience

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УПРАВЛЕНИЯ ПРОДВИЖЕНИЕМ ИДЕЙ РАЗВИТЫХ СТРАН МИРА

Камалов Азamat Джамалович

(PhD) Доцент кафедры управления образованием Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье говорится о сравнительном анализе управления идеологической пропагандой развитых стран мира. Для раскрытия содержания статьи использован опыт развитых зарубежных стран.

Ключевые слова; менеджмент, семья, соседство, идея национальной независимости, моральные нормы, зарубежный опыт

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rGANISH, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"[1] ligi shart qilib qo'yildi.

Ma'lumki, milliy istiqlol g'oyasi o'tgan yillar davomida xalqimizni "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot" maqsadi atrofida birlashtirishga xizmat qildi. O'tgan yillar davomida xalqimiz o'zining boy o'tmishi madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini angladi. Bunda milliy g'oya xalqimizning tarixiy tafakkurini boyitishning g'oyaviy manbai bo'lib xizmat qildi.

Milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari bo'lgan Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik va Dinlararo bag'rikenglik tushunchalari xalqimiz tafakkuriga singdi. Shuningdek, sobiq ittifoqni tiklashga qaratilgan g'oyalarga qarshi kurashdi.

Bugungi kunda xalqimizda sobiq o'tmishning kirdikorlari haqida aniq pozitsiya shakllandi. Yoshlarimizda davlat ramzlariga milliy, diniy qadriyatlarimizga, an'analarimizga hurmat hissi shakllandi. Milliy g'oya diniy ekstremizm va terrorizm, missionerlik va radikalizm, boqimandalik, loqaydlik va boshqa buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurash vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarni yagona vatan O'zbekiston shiori ostida birlashib totuv yashashga xizmat qildi.

Dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda, jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchaymoqda. Shu bois aholining keng qatlamlarida xususan, yoshlarda milliy g'oya

sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini, yuksak axloqiy va estetik me’yorlari va qarashlarini shakllantirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga e’tibor oshib bormoqda. Aynan, istiqlol yillarida yurtimizda xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasiga raxna soluvchi jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm ta’siriga tushish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik kabi salbiy illatlarni namoyon bo‘layotganligi ayniqsa, tashvishlidir. Bunga misol tariqasida ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan voqealardan birini keltirish mumkin. O‘zbekiston madhiyasi yangrayotgan vaqtida o‘quvchilar humatsizlik qilib, madhiyani mazax qilishgan (shuning o‘ziyoq qonunbuzarlik, shuning o‘zi uchun ham o‘quvchilarni javobgarlikka tortsa bo‘ladi), tarix o‘qituvchisi esa ularga tanbeh berib, tartibga chaqirgan. «Shundan keyin 14 nafar o‘quvchi bir bo‘lib, o‘qituvchini do‘pposlay boshlagan», — deyiladi[3], «Kun.uz» xabarida.

Bunday vaziyatda mazkur holatlarni oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining izchil amalga oshirish, ma’naviy – ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan “Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”, metodologik prinsipi ma’naviyat, milliy g‘oyaning O‘zbekistondagi strategik va amaliy vazifalarini, rolini, o‘rnini, ahamiyatini asoslab berdi[2].

Tadqiqotimiz mavzusi nuqtai nazaridan jahoning rivojlangan davlatlarida milliy g‘oya va uning targ‘iboti menejmenti masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Milliy g‘oya targ‘iboti menejmenti bo‘yicha mavjud tajribalarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, g‘oya va mafkuralar asosan,

- 1)moddiy farovonlik;
- 2)insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish;
- 3)diniy qadriyatlarni jamiyatda ustivorligini ta’minalash;
- 4)milliy mansublik va davlat tushunchasini aynanlashtirish asosiga qurilgan.

Moddiy farovonlikka asoslangan milliy g‘oya va mafkuraga AQShni misol keltirish mumkin. AQShda xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida “Amerika orzusi” g‘oyasi asosiy o‘rinni egallagan. Uning asosini millat, elat, din omillari emas, moddiy farovonlik va kapital tashkil etadi. AQSh o‘z fuqarolarini dunyoning eng kuchli va farovon davlati ekanligiga ishontiradi. Fuqarolar esa AQShga tahdid ularning farovonligiga tahdid sifatida qabul qiladi.

1892 yildan boshlab AQShning barcha bog‘cha va maktablarida bayroqqa sodiqlik qasamyod marosimi o‘tkazib kelinadi. Qasamyod matni quyidagicha, “Men respublika va AQSh bayrog‘iga sodiqlikka qasamyod qilaman. U hammamiz uchun adolat, erkinlik Xudo huzuridagi yagona millat ekanligimiz ramzidir”. Ushbu marosim ayrim shtatlarda bir haftada bir marta, ayrimlarida bir oyda bir marta o‘tkaziladi va bunda barcha o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirot etishi majburiy. Ushbu qasamyod matni yoshlarga va keng jamoatchilikka turli kino, seriallar, multfilmlarda doimiy singdirib boriladi. Shuningdek ushbu marosim rasmiy davlat tadbirlari doirasida ham o‘tkaziladi.

Geografik masofa, biz 74 yil yashagan sobiq tizimning mafkurasi amerika va o‘zbek xalqlarining bir-birlari haqidagi tasavvurlarida o‘zining salbiy izini qoldiganini yaxshi bilamiz. Bu haqda akademik A.Meliboev shunday yozgan edi: “Sho‘rolar davrida chop etilgan kitoblarni o‘qisang, G‘arbga safar qilish u yodqa tursin, bu to‘g‘rida o‘ylashga ham hohishing qolmasdi. Nega desangiz, ularda yozilishicha, dunyoning jamiki illati – shu joyda, jamiyat irib-chirib borayotgan, boylar kambag‘allarni ezib-yanchayotgan, fermerlar ortiqcha mahsulotlarini arzon-garovga sotishdan ko‘ra, ustiga kerosin sepib axlatga tashlayotgan bo‘ldi. Ko‘chaga chiqsang – qarso-qurs otishma to‘s-to‘polon. Bir yodqa yuz qavatlari, salobatidan bulut cho‘chiydigan hashamatli binolar, ikkinchi yodqa mayda-chuyda, puf deyilsa, to‘zg‘ib ketadigan xaroba uylari. Mehr-muruvvat, saxovat degan gapdan asar ham yo‘q. Bu gaplarga ishonganmiz. U paytlarda ishonmaslikning o‘zi gumrohlik edi...[4]”. Bunday qarash - sinfiy yondashuvning ob’ektiv namoyishi edi.

Xayriya va ta’limga homiylik qilish jamiyat tomonidan yuksak qadrlanadi. Bu falsafa gumanitarizm deb nom olgan. Ko‘pchilik amerikaliklar odam o‘z umri va boyligining bir qismini insonparvarlik maqsadlariga sarflashi kerak. Ana shunda uni xudo yarlaqaydi, odamlar undan rozi bo‘ladi, deb hisoblashadi. Bundan amerikaliklarda ma’naviy va moddiy qadriyatlar bir-birini to‘ldirib turadi, degan xulosaga kelish mumkin. Buning misollari sifatida Jahon xayriya indeksi bo‘yicha AQSh 2017 yilda 139da mamlakat ichida Myanma, Indoneziya, Keniya, Yangi Zelandiyadan keyin 5-o‘rinni egallaganini[5]. Ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha 2017 yilda 128 mamlakat orasida 18-o‘rinni egallaganini[6]. 2018 yilda 158ta mamlakat orasida o‘tkazilgan Dunyo mamlakatlarining baxtiyorlik darajasi bo‘yicha reytingi(World Happiness Report)da 18-o‘rinni egallaganini[7] va 2016 yili 50 mamlakat orasida o‘tkazilgan “Milliy ta’lim tizimi samaradorligi indeksi” tadqiqotida AQSh birinchi o‘rinni

egallaganini[8] keltirish mumkin.

Vatanga muhabbat - amerika orzusining asosiy qadriyati hisoblanadi. Vatanparvarlikdan asosiy maqsad – amerika jamiyatining assosini belgilovchi qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash. Bu madhiyalarda, tadbirlarda Amerikani xudo yarlaqagan mamlakat ekanligini tarannum qilish va uning milliy qadriyatlarini bardavom qilishda namoyon bo'ladi. Shu sababli «Xudo Amerikani asraydi, «Amerika go'zaldir» kabi qo'shiqlarni barcha amerikaliklar yoddan bilishadi va tantanali tadbirlarda, ayniqsa, sport musobaqalarida birga kuylashadi. Har bir futbol matchidan oldin o'n minglab tomoshabinlar tik turib ruhoniyning ibodatini tinglagach, ketidan milliy madhiyani aytishadi. Bu ham vatanparvarlik g'oyasining milliy o'zlikni anglashni rivojiga qanday yordam berayotganini ko'rsatadi.

AQShda Prezident - Vatan ramzi aholi, yoshlar o'z prezidentlari bilan faxrlanishadi. AQSh ta'lim tizimida bolalarga bolalar bog'chasi va mакtab davridan boshlab "Har bir bola kelajakda AQSh prezidenti bo'lishi mumkin" degan g'oya singdirib boriladi. Bu bolalarda yoshlikdan mamlakat taqdiriga daxldorlik, mahalliy va milliy miqyosda sodir bo'layotgan narsalarga javobgarlik, jamoat tashabbuslarida ishtirok etish istagini shakllantirishga yordam beradi.

Pentagonda kino va televiedenie maxsus bo'limi yaratilayotgan vatanparvarlik mavzusidagi kino va telelavhalar ssenariylarini jiddiy ko'rib chiqiladi, ularning ruxsatidan keyingina efirga uzatilishi mumkin.

Hollywood tomonidan ishlab chiqarilgan deyarli barcha media mahsulotlar (kino, multfilm, videorolik va h.) da AQSh siyosati targ'ib qilinadi, ularning barchasida AQSh bayrog'i va unga tenglashtirilgan ramzlar ketma-ketligi namoyish etiladi. AQSh dunyoda demokratiya,adolat, erkinlik va dunyoviy tartib himoyachisi sifatida gavdalantiriladi.

G'arbiy Yevropadagi aksar davlatlar o'z mafkuraviy texnologiyalarini "insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish" g'oyasi ustida shakllantirgan. Fuqarolarga davlatni qo'llab-quvvatlash bu - ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida singdiriladi. Xususan, Fransiyada milliy g'oyani shakllantirishda umume'tirof etilgan qonun qoidalar konsepsiysi tanlab olingan. Xalqni mamlakat maqsadlari uchun safarbar qilishda dunyo e'tirof etgan va xalqaro huquqda qo'llaniladigan normalar milliy maqsadlarga uyg'unlashtirilgan va natijada barcha uchun birdek ta'sir kuchiga aylangan.

Ammo "Barcha narsa inson va uning manfaatlari uchun" g'oyasining mutaassiblashuvi ayrim kishilar ongida "Davlat insonlarning cheksiz erkinliklarini maksimal darajada qondirilishini ta'minlashi kerak" degan yanglish tasavvurni shakllantirmoqda. Bu esa kishilar tomonidan mohiyatan antigumanistik istaklarni ham oqlanishiga va qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, bir jinsli nikoh, gedonizm, sado-mazoxizm kabi salbiy illatlar tabiiy ehtiyoj, insonning tabiiy huquqi sifatida baholanmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya doirasidan tashqarida qolgan yoshlar dunyoda «Lost generation», ya'ni "boy berilgan avlod", deb nom oldi. Buni Angliya misolida pedagogik tahlil qilamiz.

2011 yilning yozida London va Angliyaning turli shaharlarida 20 kun ichida hibsga olingan yoshlar soni mingdan oshib ketdi. Sky News telekompaniyasi magazinlar oldida to'planib, oynalarini sindirayotgan o'smirlar yozilgan hujjatli kadrlarni ko'rsatdi. Kadrlardan birida 7-8 sinf o'quvchilaridan biri magazin vitrinasini qanday sindirayotgani ko'rsatildi. O'smir dastlab katta kaltak bilan oynani urdi. Sinmadi. Keyin yugurib kelib, "qo'shoyoqlab" oynani tepdi. Yana sinmadi. Keyin uzoqdan yugurib kelib, o'zini oynaga urdi. Bu jinoiy manzarani jurnalistlar bemalol kuzatib, "tarix uchun" qayd qilib turdilar. Aslida ular shuni kutishgandek edi go'yo. Dunyoning eng siyosiy madaniyatli millatlaridan biriga ne bo'ldi?

BBS Korporatsiyasi Angliyada 2011 yilning avgust oyida ro'y bergan o'smirlarning ommaviy tartibbuzarligining o'n sababini e'lon qildi. Sabablar:

- 1) jahondagi moliyaviy inqiroz ta'siri;
- 2) jamiyatning bir qismi o'ta boyib, qolgani o'ta qashshoqlashib ketgani;
- 3) aksariyat o'smirlarning oila tarbiyasini olmay o'sgani;
- 4) ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning qisqartirilishi;
- 5) politsianing sustkashligi;
- 6) irqchilik;
- 7) rep-madaniyat(repperlar tomonidan zo'ravonlik, nigilizm va ota-onaga nafratning madh etilishi);
- 8) qondirilmagan iste'molchilik. Ko'pchilik sotib ololomaydigan qimmatbaho tovarlarning haddan ziyod ko'p reklama qilinishi;
- 9) »Arab bahori» va olomon kayfiyati bilan qorishib ketgan opportunizm;
- 10) ijtimoiy internet-tarmoqlar, fleshmobning salbiy ta'sirlari[9].

Londonda boshlangan o'smirlarning magazinlarni talab, mashinalarga, uylarga, do'konlarga o't qo'yishi

keyinchalik Birmingem, Liverpul, Nottingem i Bristol shaharlariga o‘tdi. Mamlakat iqtisodiyoti va obro‘siga katta ziyan yetkazdi. 2012 yil Angliyada bo‘lib o‘tadigan Olimpiyadani xavf ostiga qo‘ydi. Guvohlarning aytishicha, odamlarning do‘kon, mashinalariga o‘t qo‘yayotib bezori o‘smirlar odamlarga: «Kelinglar. Qo‘shilinglar, zo‘o‘o‘r!»,— deb qichqirishgan. Tergovda esa “Hamma shunday qildi. Men ham”, degan “sabab”ni aytishgan.

Biz BBSKorporatsiyasi tahlillaridagi xulosalarni to‘liq deb hsoblamaymiz. Bunda bosh – pedagogik sabab yetishmaydi. Bizningcha asosiy sabab – yoshlar tarbiyasi, ma’naviyatiga e’tiborning, yoshlarda inson kapitalini oshiruvchi institutlar faoliyatining samarasizligida. Ana shu ma’naviy-ma’rifiy bo‘shliq “ommaviy madaniyat”ning to‘xtovsiz xurujlari “boy berilgan avlod” safini kengaytirmoqda.

Diniy va milliy asoslarni uyg‘unlashtirgan holda aholini birlashtirgan mafkuralar bugungi kunda Isroil, Eron, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Myanma, qisman Yaponiya va Xitoy mafkuraviy siyosatida o‘z aksini topgan bo‘lib, davlat din yoki millat homiysi, davlat boshlig‘i diniy yoki milliy rahnamo sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolar diniy yoki milliy rahnamo atrofida jipslashadi.

Yaponiyada “tarix – sintoizm – konfutsiylik – samuraylik irodasi” qadriyatlar tizimi negizida yapon milliy g‘oyasi shakllangan. Yaponiya milliy g‘oyani singdirish usullari sifatida qadriyatlar tizimidan foydalandi. Milliy g‘oya mamlakat iqtisodiyotining tayanchi sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Miliy g‘oya – milliy iqtisod – milliy taraqqiyot.

Yagona hudud – yagona millat konsepsiysi ta’lim va boshqa tizimlarda keng qo‘llaniladi. Yaponiyada tarixiy qaxramonlar, afsonalarning millatga keng ko‘lamda tanitilishi yaponlarning ichki ruhiyatini Yaponiya uchun safarbar qilish mexanizmiga aylangan. Hukumat istalgan paytda bu mexanizmni harakatga keltira oladi. Yaponiyada “Millat, Vatan, Taqdir” tushunchalari uyg‘unlashtirildi. Yapon maktablarida “Yapon hulq atvori” darsligi alohida fan sifatida o‘rganiladi.

Yapon boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarini va bog‘cha tarbiyachilarini ma’naviy tarbiya bo‘yicha maxsus kursda qatnashib sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Boshlang‘ich maktabdan boshlab o‘quvchilarga yapon millati ruhini singdirish ularning eng asosiy vazifasi etib belgilangan.

Mafkuraviy tarbiya ta’lim tizimida “mehnatsevarlik, oila, maktab, millat va guruh ahloqi” negizida tashkil etilgan. “Har bir talaba kelajak avlodlarning madaniy rivojlanishi uchun qattiq o‘qishga majbur”ligi uqtiriladi. Jamiyat e’tiboridan qolish “Yapon shaxsiyati” uchun eng og‘ir jazo hisoblanadi.

Xitoyda milliy g‘oya va milliy ongni shakllantirishda Konfutsiy ta’limotiga murojaat qilingan. Xitoy Konfutsiy merosidan diniy ta’limot emas, balki ahloqiy asos sifatida foydalandi. Bu mamlakatda ta’limotga nisbatan mutaassib kayfiyatning shakllanishini oldini oldi va o‘z navbatida zamonaviy Xitoy qarashlariga oson moslashtirildi. Konfutsiylik axloqi besh asosiy ustunga qurilgan. Bular: 1/Yaxshilik □ 2/To‘g‘rilik □ 3/ Poklik □ 4/ Donolik □ va 5/ Ishonchlikli ni tashkil qiladi. Ushbu axloqiy tamoyillar Xitoy ma’naviy-mafkuraviy siyosatida ustivor mavqega ega.

Xitoyda ma’naviy tarbiya tizimi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi asosida tashkil etilgan. Yoshlikdan bolalarga shaxsiy ehtiyojlar va jamoaviy ehtiyojlar o‘rtasidagi balansni saqlash o‘rgatib boriladi. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilish jamoaviy ehtiyojlarga daxl qilmasligiga alohida urg‘u berilgan. Xitoyda qattiqo‘llik va qat’iy tartib intizom ustuvor hisoblanadi.

Xitoyning afsonaviy podsholaridan bo‘lgan Yaoning “Mehr-oqibat, yaxshi xulq-atvor, bilim,adolat va sharaf xitoy millatining uzoq yashashining kafolatidir” degan fikri bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Millat va milliy davlat tushunchasini aynanlashtirish omilidan Germaniya, Turkiya, Koreya respublikasi kabi bir qator davlatlar milliy mafkurasini shakllantirishda keng foydalanishgan.

Germaniyada milliy g‘oya nemis millati va davlati birligi negizida shakllangan bo‘lib, garchi ikkinchi jahon urushidan keyin rasman nemis millatchiligi rad etilsada, zamonaviy Germaniya mafkurasi “nemis millatining o‘ziga xosligi”ning postmodern va postindustrial talqini asosida qayta ishlanib, Germaniya milliy birligining asosiy kuchini tashkil etmoqda.

Germaniyada ma’naviy tarbiya inson tug‘ilgandan boshlanadigan uzviy jarayon bo‘lib, inson tug‘ilganidan to ish faoliyatini yakunlaguncha davom etadi. Ushbu tarbiyada asosiy urg‘u “nemis milliy xarakteri”ni shakllantirishga qaratilgan. Qat’iy tartib va qonun-qoidalarga itoat etishga katta e’tibor qaratilgan. Bog‘chada bolalarga xos xususiyatlardan kelib chiqadigan bo‘lsa, mehnat jamoalarida ish samaradorligi va vatanparvarlik tamoyillari orqali amalga oshiriladi.

Nemis oilalari hozirgi vaqtgacha ijtimoiy hayotda asosiy o‘rinni egallaydi. Germaniyada oila instituti bilan ishlaydigan alohida vazirlik tashkil etilgan. Oila qurish istagining pasayib borishi va oila qurish yoshining ko‘tarilishi bu asosan jamiyatdagi iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

Nemis oilasiga mansub xonadonlarda bolalar xonasi bo‘lishi majburiy etib belgilangan. Nemis oilalarida bolalarning kun tartibi qat’iy belgilangan bo‘lib, bola 8 yoshgacha TV ko‘rishi mumkin emas, degan qat’iy qoidaga amal qiladi. Uning o‘rniga bolalar rasm chizish va musiqa mashg‘ulotlari bilan band bo‘ladi. Kechki uyqu payti qat’iy 20:00 qilib belgilangan. Ota-onalar haftada kamida bir marotaba farzandlari bilan xiyobonga va jamoat dam olish joylariga borishi shart deb qabul qilingan. Germaniyada farzandga uning ota-onasidan boshqa shaxs tanbeh berishi mumkin emas.

Germaniyada barcha OAV milliy g‘oyaning targ‘ibotchisi hisoblanadi.

Janubiy Koreya Respublikasida ham milliy g‘oyaning asosi koreys millatining o‘ziga xosligi hisoblanadi. Milliy o‘ziga xoslik asosan urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib boriladi. Yoshlarni tarbiyalashda oila instituti asosiy hisoblanadi. Shuning uchun koreys oilalarida umumiy budgetining 56% farzand uchun sarflanadi. Farzandning dastlabki tarbiyasi bilan faqat onalar mashg‘ul bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Tarbiyaning dastlabki bosqichida onalar o‘z farzandlariga koreys milliy an‘nalarini (salomlashish, kattalarga hurmat...) o‘rgatishadi.

Aksariyat Sharq mamlakatlaridagi kabi Janubiy Koreyada ham targ‘ibot texnologiyasining eng samarali usuli sifatida jamiyatdagi norasmiy liderlar va tarixiy qahramonlarga katta urg‘u beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg‘unlashtirish, yagona hudud – yagona xalq tushunchasi shakllantirilganligi, vatan va davlat, xalq va millat tushunchalari g‘oyaviy nuqtai nazardan birlashtirilganligi mamlakat aholisining umumiy maqsadlar yo‘lida birlashuvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalaniman adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 27 декабрь.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 29 декабрь куни миллий кино санъати ва киноиндустряни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлили ва бу борада мавжуд муаммоларни ҳал этиш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017

<https://daryo.uz/k/2018/11/17/toshkentda-madhiyani-mazax-qilgan-va-oqituvchini-dopposlagan-14-oquvchiga-nisbatan-maxsus-komissiya-chora-kordi/>

А. Мелибоев. Журналистика сабоқлари./Ўқув қўлланма. –Тошкент. Azmir Nashr Print, 2017. - 144 б. 77-6.

<http://www.cafonline.org/>. 2018 йил 20 май.

<http://www.socialprogressindex.com/2018> йил 20 май.

<http://www.worldhappiness.report/2018> йил 20 май.

<http://thelearningcurve.pearson.com/2018> йил 20 май.

BBC Корпорацияси. Англияда 2011 йилнинг август ойида рўй берган ўсмирларнинг оммавий тартибузарлигининг ўн сабабини эълон қилди(21.08.2011 22:02).